

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**AZIMOVA DILAFRUZ ISMOILOVNA**

**ASALARILARNING NOZEMATOZIDA PROFILAKTIK VA  
DAVOLASH TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**03.00.06 – Zoologiya**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand-2025**

UO‘K: 619:638.1:616-084.

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным  
наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciens**

**Azimova Dilafruz Ismoilovna**

Asalarilarning nozematozida profilaktik va davolash tadbirlarini  
takomillashtirish .....5

**Азимова Дилафруз Исмоиловна**

Усовершенствование мер профилактики и лечения при нозематозе  
пчел .....23

**Azimova Dilafruz Ismoilovna**

Improving measures for prevention and treatment of nosematosis in  
bees.....43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....47

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**AZIMOVA DILAFRUZ ISMOILOVNA**

**ASALARILARNING NOZEMATOZIDA PROFILAKTIK VA  
DAVOLASH TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**03.00.06 – Zoologiya**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand-2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/V110 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.ssuv.uz](http://www.ssuv.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nasimov Shuxrat Naimovich**  
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Mavlonov Sobirjon Ibodullayevich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Jabborov Abdurashid Raimovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «11» 03 soat «15<sup>00</sup>» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14336 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «24» 02 kuni tarqatildi.  
(2025 yil «24» 02 dagi № 1 - raqamli reystr bayonnomasi)



**X.B.Yunusov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, biol.f.d., professor

**S.B.Eshbo'riyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, vet.f.d., dotsent

**O.N.Norboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,  
professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri asalarichilikni rivojlantirishda, ularni nozematoz bilan zararlanishini oldini olish muhim ahamiyatga ega muammolardan biri hisoblanadi. Rossiya, Avstraliya, AQSh va boshqa ko'plab davlatlarda asalarilarni nozematozdan asrash zarurati tufayli, hududlarda mavjud asalari oilalarida *nosema* sporalarining tarqalish darajasini aniqlash va yuqori samarali, yangi protosit preparatlarni yaratish ustida ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. «Asalarilar nozematozining iqtisodiy zarari katta, masalan shimoliy Amerikada kasallikdan ko'rilgan yo'qotishlar jami 24 ming tonna asalni tashkil etgan. Avstraliyada so'ngi yillarda asal olish o'rtacha 20 tonnaga kamaygan. *Nosema* sporalari bilan zararlangan asalarilarda asal mahsuldorligi 35-50 % ga kamayib, asalarilarning ko'payishi 58-75 % ga pasayishi, o'lim darajasi 2-3 barobar oratib borishi»<sup>1</sup> aniqlanilgan. «Iqtisodiy zarar o'z vaqtida davolanmagan asalari oilalarida asalarilarning 70-75 foizgacha nobud bo'lishi, uyalarda qolgan 10-15 % asalarilarda mahsuldorlik va reproduktiv xususiyatlarning yo'qolishiga to'g'ri kelsa, 15 foizi esa davolash-profilaktika xarajatlarga to'g'ri kelmoqda»<sup>2</sup>. Shuning uchun asalarilar nozematozining epizootik holatini o'rganish, ularga qarshi davolash-profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida nozematoz kasalligining epizootologik holatini tahlil qilish, kasallik tarqatuvchi sporalarning biologiyasi, tarqalish areallari, kasallikning mavsumiy dinamikasi, davolash va profilaktika qilishda turli dori vositalarining samaradorligini aniqlash, nozematozni oldini olishning yangi va samarali usullarini ishlab chiqish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy- tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli hududlarda asalarilarning nozematoz kasalligining mavsumiy dinamikasi, kasallik qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, hududlarda kasallik qo'zg'atuvchilariga qarshi davolash va profilaktik tadbirlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Asalarilarning nozematoz kasalliklarini zamonaviy usullarda tashxislash, ularga qarshi samarali davolash va oldini olish chora- tadbirlarini ishlab chiqish veterinariya ilm fani va amaliyotidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda asalarichilikni sanoat negizida rivojlantirish davrida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar bugungi kunda, ya'ni asalarichilikning xususiy dehqon-fermer xo'jaliklari va boshqa turdagi nodavlat xo'jaliklar sharoitida o'ziga xos o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturda asalarichilik tarmoqlarida naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko'paytirish, asalni qayta

---

<sup>1</sup> Porrini M. P. *Nosema ceranae* in South American native stingless bees and social wasp // Microbial. Ecology. – 2017. – Vol. 74 is. 4. – P. 761–76

<sup>2</sup> Chemurot M. *Nosema* sp. (Microsporidia, Nosematidae), a new microsporidian parasite of honeybees, *Apis mellifera* // European Journal of Protistology. – 2017. – Vol. 61. – P. 13

ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish hamda asal mahsuloti hajmini 25 ming tonnadan 52,5 ming tonnaga oshirish kabi vazifalar belgilangan. Shu boisdan asalari oilalarida yil mavsumlari bo'yicha *nosema* sporalarining tarqalish darajasini aniqlash va nozematozga qarshi davolash va profilaktik chora tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish zarurati mavjud.

Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni, 2017 yil 16 oktyabrdagi PQ-3327 son «Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021-yil 3-martdagi «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5017-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8 fevraldagi PQ-120 son «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Asalari nozematozi va ularga qarshi davolash-profilaktika chora-tadbirlari bo'yicha xorijiy olimlardan И.М. Лойко, З.Я. Зинатуллина, Л.Н. Рубанец, Д.А. Наумович, А.Г. Маннапов, О.Ф. Гробов, Р.А. Ильясов, Л.Р. Гайфуллина, Е.С Салтыкова, Е.Ф. Садовникова, Е.Е Кузьмин, В.А. Герасимчик, Ю. С. Токарев, Е.Н. Дунец, А. М. Смирнов, Е. Forsgren, I Fries, Ramesh Sagalilar kabi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar nozematozning tarqalish holati, epizootologiyasi va ularga qarshi kurash choralari har bir mamlakat, turli geografik-iqlim mintaqalar sharoitida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatmoqda va bu yo'nalishda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazib kelinmoqda. Respublikamiz olimlaridan O.Davidov, O. To'rayev, Sh. Suyarqulov, A. Isomammedov, I. Nekadambayev, O.Mahmadiyorovlar tomonidan asalarichilik sohasida naslchilik ishlarini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ammo nozematoz alohida kasallik sifatida maxsus o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, innovatsion rivojlanish agentligining «Qishloq xo'jalik, veterinariya va atrof-muhit muhofazasi» yo'nalishidagi PZ-2020123121 raqamli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Respublikamizning ayrim hududlarida asalari nozematozining tarqalish darajasini va bu ko'rsatkichlarning yil mavsumlari

bo'yicha o'zgarishini (dinamikasi) aniqlash, nozematozga qarshi yangi mahalliy probiotik va xorijiy preparatlarni sinovdan o'kazishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Respublikamizning turli iqlimga ega bo'lgan ayrim jug'rofiy hududlarida asalari oilalarida *nosema* sporalarining tarqalishini aniqlash;

asalari nozematozini yil mavsumlari bo'yicha o'zgarishini (mavsumiy dinamikasi) aniqlash;

asalari nozematozining ular mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlariga ta'sirini o'rganish;

nozematozni davolash va profilaktika vositalarining samaradorligini eksperimental tajribalarda sinovdan o'tkazish;

asalarilar nozematozini mahalliy probiotik vositalarni qo'llashga asoslangan samarali profilaktik usullarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida laboratoriya va asalarichilik xo'jaligidagi asalarilar, aholi qaramog'idagi asalari oilalari, *nosema* sporalarini o'zida saqlagan kasal asalarilar, davolash va oldini olish vositalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib parazitologik tadqiqotlar jarayonida yig'ilgan parazitologik materiallar, *nosema* sporalari, protosit preparatlar, mahalliy probiotik vositasi, sporalar bilan zararlanish ko'rsatgichlari, asalari nozematozining profilaktikasi va davolash chora-tadbirlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda organoleptik, entomologik qafas usuli, mikroskopik, parazitologik, ezilgan tomchi hamda avlod kengligini sanash uchun panjarali rom va statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

asalarilarni *nosema* sporalari bilan zararlanish darajasining mavsumiy dinamikasi (qishda 8,5%, bahorda 19,3%, yozda 6,5% va kuzda 3,6%) aniqlangan;

ilk bor asalari oilalarining 22,7 foizi *nosema*, *varroa*, *tropilaelaps* kanasi bilan, 28,3 foizi *varroa*, *tropilaelaps* kanasi bilan, 37,5 foizi *varroa* kanasining o'zi bilan zararlanishining aralash holda kuzatilishi ilmiy asoslangan;

ilk bor asalari nozematozini davolashda Толкокс 2,5% preparatining 0,25 ml dozasi protosit tasiriga egaligi entomologik qafaslarda guruhli usulda hamda asalarichilik xo'jalik sharoitida qo'llanilib aniqlangan;

birinchi marotaba asalari nozematozini mahalliy INNOPROVET probiotigini kukuni 2 gramm miqdorida 2 kg qandli oziqaga qo'shib qo'llashga asoslangan samarali profilaktika usuli ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Samarqand, Jizzax, Buxoro viloyatlarining ayrim tumanlarida asalarilarda *nosema* sporalarining tarqalish darajasi, mavsumiy dinamikasi aniqlangan va bu bo'yicha olingan ma'lumotlar *nosema* sporalariga qarshi davolash-profilaktika chora-tadbirlarining hajmi va optimal muddatlarini aniqlashda ilmiy asos bo'lib hisoblanadi;

asalarilar nozematozini davolashda Толкокс 2,5% preparatini 0,25 ml+1 litr shakarli sirop bilan qo'llashning samaradorligi yuqoriligi tajribalarda aniqlanilgan;

nozematozni profilaktikasida mahalliy INNOPROVET probiotigi kukuni 2 g

+ 2 kg shakar kukuni, 600 g suyuq asal birgalikda qo‘shib tayyorlanilgan qandi oziqasining samaradorligi yuqoriligi aniqlanilgan;

ishlab chiqilgan amaliyot uchun tavsiyalar asalari nozematoziga qarshi kurashning samaradorligini oshiradi va asalarichilik sohasida iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlarning parazitologiyada qabul qilingan uslublardan foydalanilgan holda olib borilganligi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 2022-2024 yillarda har yilgi aprotatsiya ko‘rigidan o‘tganligi, olingan ma‘lumotlar chuqur ilmiy tahlil qilinganligi, ularning nazariy asoslanganligi va amaliy ahamiyati tahlil qilinib tegishli xulosalar qilinganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki asalarichilik yuritishning zamonaviy texnologiyasi sharoitida Samarqand, Jizzax, Buxoro viloyatining ayrim tumanlarida asalarilar nozematozining tarqalish holati, yil fasllari bo‘yicha mavsumiy dinamikasi hamda kasallikni davolash va oldini olishda qo‘llanilgan yangi yaratilgan mahalliy INNOPROVET probiotigini qo‘llanilganligi, uni asalarilarning mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlariga ta‘siri o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yangi yaratilgan mahalliy probiotik va xorijiy preparatlarning asalari nozematoziga qarshi keng ko‘lamda ishlatilishi, davolash-profilaktika chora-tadbirlarini asalarichilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar hamda aholi qaramog‘ida mavjud asalarilarga joriy etilganligi, ushbu tavsiyalardan foydalanish orqali asalarichilik xo‘jaliklarida *nosema* sporalariga qarshi davolash-profilaktika chora-tadbirlarining hajmi va optimal muddatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Asalarilarning nozematozida profilaktik va davolash tadbirlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

“Asalarilarning nozematozida profilaktik va davolash tadbirlarini takomillashtirish” bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilib Samarqand viloyatining asalarichilik xo‘jaliklariga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024 yil 24 oktyabrdagi №02/23-590-son ma‘lumotnomasi). Bunda asalarilar nozematozini davolash va profilaktika qilish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan;

asalarilar nozematozini oldini olishda mahalliy INNOPROVET probiotigini qishki mavsumda (2 g probiotik, 2 kg shakar kukuni va 600 ml suyuq asalga qo‘shib tayyorlangan qandi oziqasi) qo‘llash usuli ishlab chiqilgan va veterinariya amaliyotiga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024 yil 24 oktyabrdagi №02/23-590-son ma‘lumotnomasi). Natijada asalari organizmda rezistentlik hamda immun sistemasiga ta‘siri natijasida asalarilarning o‘rta ichagidagi foydali bakteriyalarning ko‘payishi

hisobiga nozematozni oldini olishga e'rishilgan. Bunda iqtisodiy samardorlik sarflangan har 1 so'm hisobiga 4,2 so'mni tashkil etgan;

Толкокс 2,5% preparatini uyadagi 12 ta romlardagi asalari hisobida 0,25 ml +1 litr shakarli siropga qo'shib tayyorlangan preparatli siropdan 250 g miqdorida qo'llashga asoslangan nozematozni davolash usuli Samarqand viloyatining "Orzu, Olim, Dilmurod asallari" asalarichilik kompleksida, "Baxshitepa baliqlari" negizida tashkil etilgan asalari oilalarida, "Navruzбек tog' arilari" asalarichilik xo'jaligida, Xabibov qaramog'idagi shaxsiy asalari oilalarida joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 24 oktyabrdagi №02/23-590-son ma'lumotnomasi). Natijada hududlarda nozematoz bilan kasallangan asalarilarni davolashda preparatning muqobil dozalarini aniqlashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari bo'yicha jami 5 ta shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferehtsiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 ta Respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy konferehtsiyalarda nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma tayyorlangan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligini va zaruriyati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobi ikki qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi «Nozematoz qo'zg'atuvchilari, epizootologiyasi, biologik, morfologik xususiyatlari, kasallikning patogenezi, klinik belgilari va diagnostikasi» deb nomlangan qismida nozematoz kasalligining qo'zg'atuvchisining tashqi muhitga chidamlilik darajasi, asalarilarda kasallikning klinik belgilari, *nosema* sporalarining asalari oilalarida tarqalishi, asalarilarda kasallikka diagnoz qo'yish usullari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning ushbu bobidagi «Asalarilar nozematozini davolash va oldini

olish bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar sharhi» deb nomlangan qismida asalari nozematozni davolashda ishlatiladigan preparatlar nomi, tarkibi va tajribalarda turli geografik-iqlim sharoitdagi xo'jaliklarda sinovdan o'tkazilib, amaliyot tajribalarda natija bergan vositalar va ularni qo'llash uslublari qo'llanilgan vositalarning samaradorligi to'g'risidagi keng-ko'lamli ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot materiallari va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, ob'ekti va usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar 2022-2024 yillar davomida SamDVMChBUda va asalarichilik yuritishning zamonaviy texnologiyali sharoitida asalarilar nozematozi ularning Respublikaning ayrim viloyat va tumanlarida, turli geografik-iqlim mintaqalarida tarqalish darajasi aniqlash maqsadida Jizzax, Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi asalarichilik xo'jaliklari va aholi xonadonlaridagi asalari oilalarida parazitologik tekshirishlar olib borilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Respublikaning 3 ta viloyat hududlari bo'yicha jami 517 ta asalari oilasidan parazitologik tekshirishlar uchun namunalar olindi. Olingan natijalar asosida asalari nozematozini hozirgi kundagi tarqalish darajasi, *nosema* sporalarining geografik-iqlim mintaqalar va fasllar bo'yicha tarqalish dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur tekshirishlar tirik va o'lik asalari namunalarini ezilgan tomchi usulida, zararlanish darajasi 4 ballik tizimda baholandi hamda *nosema* sporalarini Goryayev sanoq to'ridan foydalanilgan holda MICD30 trinuklar mikroskopi ostida 10 x 100/1,25 ko'rish kattaligida sporalar soni aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi «**Xususiy tadqiqotlar**» bobida asalarilar nozematozining epizootologiyasi diagnostikasi va davolashda protosit preparatlar samaradorligini aniqlashda olib borilgan esperimental tekshirishlar natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning ushbu bobidagi «**Nozematozning epizootologiyasi va hududlarda asalari oilalarini *nosema* sporalari bilan zararlanish dinamikasi**» deb nomlangan qismida yilning turli fasllarida va turli geografik iqlimli hududlarida parvarishlanayotgan asalari oilalarida *nosema* sporalarining tarqalish dinamikasi o'rganilib, fasllar kesimida yillik nozematoz bilan kasallanish darajasi aniqlangan. Jumladan Samarqand, Jizzax va Buxoro viloyatlarining tajribalar olib borilgan tumanlardagi aholi qaramog'idagi asalari oilalarida fasllar kesimida nozematoz sporalari bilan zararlanish darajasini quydagicha Samarqand viloyatida jami 229 ta asalari oilalari ko'rikdan o'tkazildi. Qishda 47 ta asalari oilalaridan 5 tasida (10,6 %), bahorda tekshirilgan 62 ta oiladan 15 tasida (24,1 %), yoz faslida 53 ta asalari oilasidan 3 tasi (5,6 %) va kuz oylarida tekshirilgan jami 67 oilaning 3 tasida (4,1 %) nozematoz bilan zararlanganlik holatlari aniqlandi.

Kasallik mavsumiy bo'lganligi uchun bahor mavsumida ko'plab asalari oilalari *nosema* sporasi bilan zararlanadi. Bahor faslida yomg'irli kunlarning ko'p bo'lishi, yuqori namgarchilik va asalari uyalarida pad asalaning ko'p ishlatilishi kasallikning ko'payishiga sabab bo'lishi aniqlandi.

Jizzax viloyatida jami 164 ta asalari oilalari ko‘rikdan o‘tkazildi. Qishda 53 ta oilalardan 4 tasida (7,5 %), bahorda tekshirilgan 45 ta oiladan 7 tasida (15,5 %), yoz faslida 11 ta asalari oilasidan 2 tasi (4,4 %), kuzda esa jami tekshirilgan 55 ta oiladan 2 tasida (3,6 %) nozematoz bilan zararlanganlik holatlari aniqlandi.

Kasallikning rivojlanishida qishki mavsumda saqlash sharoitining talab darajasida emasligi kuzatildi. Buxoro viloyati ayrim asalarichilik xo‘jaliklari va aholi qaramog‘idagi asalari oilalaridan jami olingan 124 ta namunalarda *nosema* sporasining tarqalishi quydagicha qish faslida tekshirilgan 29 ta oiladan 2 tasida (6,8 %), bahor oylarida tekshirilgan 17 ta oiladan 2 tasida (11,7 %), yoz oylarida jami 6 ta oiladan 1 tasida (1,0 %) va kuzda jai tekshirilgan 72 ta oiladan 2 tasida (2,7 %) nozematoz bilan zararlanganlik holatlari aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Jizzax, Samarqand va Buxoro viloyatlarining o‘rganilgan xo‘jaliklarida asalari oilalarining nozematoz bilan zararlanish darajasi qish oylarida 8,5 foizni, bahorda 19,3 %, yozda 6,5 % va kuzda 3,6 foizni tashkil qilib, respublikamizning o‘rganilgan hududlarida asalari nozematozi bilan kasallanish 21,6 % ni tashkil etib, eng yuqori kasallanish darajasi bahor faslida kuzatilishi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, *nosema* sporalari bilan zararlanish yil davomida mavsumiy dinamikaga ega bo‘lib, asalarilarning zararlanishi asosan bahor va kech kuzda va qish faslida kuzatiladi. Asalari organizmiga tushgan parazit sporalari 72 soat ichida rivojlanib voyaga yetadi va invazyialangan sporalarini asalari najaslari bilan tashqi muhitga chiqaradi. Shu sababli kasallik tez tarqalib boshqa uyalardagi asalarilarni zararlaydi (1-jadval).

### 1-jadval


#### *Nosema* sporalari bilan zararlanish darajasi

Xo‘jalik manzili	Qish		Bahor		Yoz		Kuz		Xo‘jaliklar bo‘yicha jami tekshirilgan namunalari soni
	TO soni	ZO soni							
Samarqand	47	5	62	15	53	3	67	3	229
Jizzax	53	4	45	7	11	2	55	2	164
Buxoro	29	2	17	2	6	1	72	2	124
Asalari oilasining zararlanishi (%)	8,5 %		19,3%		6,5%		3,6%		517

*Izoh; TO -tekshirilgan oilalar; ZO-zararlangan oilalar*

Shunday qilib, asalarilar *nosema* sporalari bilan zararlanganligi yil mavsumlarida yaqqol koʻzga tashlanadigan darajada oʻzgarishlar bilan tavsiflanadi, bu koʻrsatkich qish va bahor faslida eng yuqori boʻlishi aniqlandi. Demak, asalari oilalarini himoya qilish uchun yilning kech kuz oylarida profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga koʻra asalari nozematozi yil fasllari boʻyicha zararlanish dinamikasi hamda parazitning rivojlanishiga bevosita bioekologik omillarni taʼsiri tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning ushbu bobidagi **“FUMAGILIN-B preparatining qafas tajribalarida davolash samaradorligi”** deb nomlangan qismida bahor faslining ikkinchi oʻn kunligida, asalarilarning dastlabki parvozidan keyin, asal yigʻish boshlanishidan oldin laboratoriya sharoitida olib borildi. Tekshirishlardan olingan natijalar asosida, tajribaning dastlabki kunida tajriba va nazorat qafaslaridagi asalarilarda *nosema* sporalari bilan zararlanish tajriba guruhida  $3,5 \pm 0,3$  ming dona, nazorat qafaslaridan olingan namunalarda  $3,4 \pm 0,1$  ming dona sporalar mavjud ekanligi ikkala guruhlarada zararlamish holatlari qarib bir xilligi aniqlandi. Birinchi mart kuni olingan namunalarda tajriba entomologik qafaslardan (EQ) olingan namunalarda sporalar soni  $3,1 \pm 0,2$  ming dona ekanligi, nazorat qafaslaridan olingan namunalarda  $3,8 \pm 0,2$  ming dona ekanligi, uchinchi mart kuni olingan namunalarda tajriba qafaslarida olingan namunalarda  $2,6 \pm 0,1$  ming dona sporalar soni sanaldi, nazorat qafaslarda olingan namunalarda  $4,1 \pm 0,2$  ming dona sporalar sanaldi. Tajriba davomida nazorat qafaslardagi asalari organizmida *nosema* sporalarining kun sayin koʻpayishi kuzatildi. 14- mart kuni olingan namunalarda *noseam* sporalarining soni tajriba qafaslarida  $1,0 \pm 0,1$  ming donani tashkil etdi. Kasallikning kilinik belgilari hamda oʻlim holati kuzatildi. Preparatning samaradorligini statistik tahlil qilganda, shakarli sirop va Fumagilin-B preparati birga qoʻllanilganda tajriba davomida *nosema* sporalarining nobud boʻlishi asosida olib borildi (1-rasm).



**1-rasm.** FUMAGILIN-B preparatining samaradorligini statistik tahlil natijasi.

Nazorat qafaslaridan olingan namunalarda  $5,8 \pm 0,2$  ming donadan ko'p ekanligi va EQlarda asalarilarning nobud bo'lish holatlari kuzatildi. Tajriba qafaslarda esa aksincha FUMAGILIN-B preparatining ta'siri natijasida asalari organizmidagi sporalar tezda nobud bo'lishi aniqlanildi. Tadqiqotlar davomida Fumagillin-B preparatning samaradorligi yuqori ekanligi tajriba qafaslaridagi asalari organizmida sporalarning kun sayin kamayishi aniqlandi. Nazorat qafasida asalarilarda aksincha.

Sporalarning nobud bo'lishi  $y=6429,3-0,14x$  regressiya tenglamasiga bo'ysunib, korelatsiya ko'effitsienti  $r=-0,99$  teng bo'lsa, faqatgina shakarli sirop qo'llanilgan nazorat guruhida esa *nosema* sporalari sonining ortib borishi  $y=5969,5+0,13x$  regressiya tenglamasiga bo'ysunib, korrelyatsiya ko'effitsienti  $r=0,99$  ga tengligi statistik jihatdan isbotlandi. Tajribadagi har ikkala variantda ham determinatsiya ko'effitsienti  $R^2=0,99$  ishonchli ekanligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, Fumagilin-B va shakarli siropni birgalikda qo'llash *nosema* sporalari 10-15 kun ichida ko'plab nobud bo'lishini ta'minlaydi. O'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari asosida FUMAGILIN-B asalarilarda nozematozning davolash uchun samarali dori ekanligi tajribada aniqlandi.

Dissertatsiyaning ushbu bobida **“Толкок 2,5% preparatini asalarilarda maqbul dozasi laboratoriya sharoitida aniqlash”** deb nomlangan qismida laboratoriya sharoitida Толкок 2,5% preparatining toksik dozasi va davolovchi dozalari guruhli usulda, logarifmik ketma-ketlikda 4 xil ya'ni 0,05; 0,1; 0,25; 0,5ml olindi. Entomologik qafaslardagi (EQ) tajriba va nazorat guruhlari tajriba dozalari berilishidan ikki soat oldin oziqlantirilmadan xona xaroratida qoldirildi. Толкок 2,5% preparatining tajriba uchun olingan dozalarini har birini alohida 1 litr shakarli siropga qo'shib yaxshilab aralashtirildi va preparatli sirop tayyorlandi. Birinchi tajriba guruhiga 0,05 ml + 1 l sirop aralashmasidan 10 ml, ikkinchi tajriba guruhidagi EQ asalarilarga 0,1 ml + 1 l sirop aralashmasidan 10 ml, uchinchi guruhga 0,25 ml + 1 l sirop aralashmasidan 10 ml va to'rtinchi guruh asalarilarga 0,5 ml + 1 l sirop aralashmasidan 10 ml miqdorida berildi va beshinchi guruhga nazorat sifatida preparat qo'llanilmadi. Nazorat guruhidagi asalarilar laboratoriyada tayyorlangan shakarli shirop bilan 10 ml miqdorida oziqlantirildi. Tajriba va nazorat qafaslaridagi asalarilar 24 soat davomida kuzatildi shu vaqt oralig'ida oziqlantirilmadi. Berilgan preparatni asalarilar uchun xavfli va toksik ta'sirini tajriba qafaslardagi o'lgan asalarilar soni orqali aniqlandi. Tajribalardan olingan natijalar asosida 2,5 %-Tolkoks preparatidan olingan dozalarni siropga qo'shib oziqlantirilganda asalarilarning fiziologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi, asalarilarda ich o'tish, g'ujlanish asalarilarda o'lim holatlari kuzatilmadi. Tajribalar laboratoriya sharoitida guruhli usulda 3 marotaba qayta-qayta sog'lom asalarilarda 10 kun davomida olib borildi.

Dissertatsiyaning ushbu bobidagi **“Asalarilarda Толкок 2,5% preparatining protosit ta'sirini aniqlash”** deb nomlangan qismida Толкок 2,5% preparatining laboratoriya sharoitida *nosema* sporalari bilan eksperimental zararlantirilgan asalarilarda protositlik ta'siri aniqlandi. Толкок 2,5% preparatining 4 xil (0,05; 0,1; 0,25; 0,5ml) dozalari alohida-alohida 1 litr shakarli

siropga aralashtirib nozematoz bilan zararlantirilgan tajriba entomologik qafaslardagi asalarilarga 10 ml dan bir marotaba berildi. 6 -entomologik qafasdagi asalarilar nazorat guruhi sifatida oddiy shakarli sirop bilan oziqlantirildi.

Tekshirish natijasiga asoslanib Толкокс 2,5% preparatining 0,25 ml 1 l shakarli siropga qo'shib oziqlantirilgan guruhdagi namunalarda 5-kunida *nosema* sporasining soni  $201,6 \pm 7,46$  mingta ekanligi, qiyosiy nazorat guruhida  $202,8 \pm 6,42$  mingta ekanligi tajriba va nazorat qafaslaridan olingan namunalarda sporalarning soni deyarli bir xilligi tekshirishlar natijasida aniqlandi.

Tajribaning 8- kunda olingan namunalarda sporalarning soni tajriba qafaslarida  $101 \pm 2,16$  mingtaga kamyanligi, qiyosiy nazorat guruhi entomologik qafaslarda  $305,8 \pm 9,19$  mingtaga ko'paygani, tajribaning 11 – kunda olingan namunadagi sporalarning soni tajriba guruhidagi entomologik qafaslarda asalarilardan olingan namunalarda sporalar aniqlanmadi, qiyosiy nazorat guruhidagi entomologik qafaslarda  $481,6 \pm 9,85$  mingta sporalarning ko'payib ketganligi hamda qafaslarda o'lgan asalarilarning mavjudligi tajribalar davomida aniqlandi. Nazorat guruhidagi asalarilar bilan solishtirilganda ko'rsatkichlar hamma variantlarda ham ishonchli bo'lgan ( $P > 0,979$ ). Preparatning yuqori samaradorlikka ega ekanligi tajribalarda isbotlandi. Nozematozni davolashda o'rtacha doza 0,25 ml Толкокс 2,5% + 1 l shakarli siropga aralashtirib, aralashgan masadan 10 ml olinib qafasdagi asalarilar 24 soat davomida oziqlantirganda samarali veterinar farmakologik nozematsid preparatligi aniqlandi.

Dissertasiyaning ushbu bobidagi **“Asalarilar nozematozini davolashda Толкокс 2,5% preparatining samaradorligi”** deb nomlangan qismida Толкокс 2,5% preparatining nozematozni davolash samaradorligi Samarqand viloyati Samarqand tumani Ravonak MFY da yashovchi Xabibovlar qaramog'idagi asalari oilalarida olib borildi. Klinik ko'rik davomida nozematoz bilan kasallangan oilalar ajratib olinib, 1 ta tajriba va 2 ta nazorat guruhi tayyorlandi. Tajriba va nazorat guruhidagi asalari uyalarida 5 tadan romka va o'rtacha kuchli asalari oilalari hisobida har bir uyada  $4854 \pm 4906$  tadan ishchi asalari va 1 tadan ona asalarilardan iborat. Толкокс 2,5% preparati 0,25 ml (1 ml preparatning 4/1 qismi) va 1 litr shakarli siropga qo'shib tayyorlanganda davolash samaradorligi yuqori deb topilgan dozalari tajriba uchun qo'llanildi. Tajriba va nazorat guruhidagi asalarilarga preparat berilishidan 1 soat oldin oziqlantirish to'xtatildi. 1- tajriba guruhidagi *nosema* bilan zararlangan asalarilarga Толкокс 2,5% prepartidan 0,25 ml 1 litr shakarli siropga qo'shib aralashtirilib 250 g miqdorida 24 soat davomida oziqlantirildi. 2-nazorat guruhidagi nozematoz bilan zararlangan asalarilarga hozirda qo'llanilib kelinayotgan FUMAGILLIN-B preparati yo'riqnoma asosida 2 g preparat +1 litr siropga qo'shib shu aralashmadan 250 g bir marotaba oziqlantirildi va kuzatish ishlari olib borildi. 3- guruhidagi asalarilarga nazorat sifatida preparatlar qo'llanilmadi faqatgina shakarli sirop bilan oziqlantirildi (2-jadval).

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bir marta Толкокс 2,5% preparati berilgan 1-tajriba guruhidagi asalarilarda ich o'tishining to'xtagani, uya devorida o'rmlab harakatlanish yo'qligi, uyaga kirib-chiqish joyidagi teshikcha atrofida o'lgan

ishchi asalarilar sonining kamligi va guruhdagi asalarilarda mehnat faoliyatining tiklanganligi kuzatildi.

## 2-jadval

### Xo‘jalik sharoitida *nosema* sporalari bilan zararlangan asalarilarga berilgan preparatlar miqdori va olingan natijalar

T\R	Guruhlar nomi	Preparat nomi	Asalarilar soni M	Preparatli siropni berilgan dozalari	Olingan natijalar	
					O‘lim soni	%
1	Tajriba	Толкокс 2,5%	4854	250 g	92	1,8
2	Nazorat	FUMAGILIN-B	4736	250 g	112	2,2
3	Nazorat	Shakarli sirop	4715	Sirop 250 g	318	6,7
4	<b>Jami</b>		<b>14305</b>	<b>750</b>	<b>522</b>	<b>10</b>

Kuzatishlar davomida 1- tajriba guruhidagi asalarilarning 92 (1,8 %) tasi nobud bo‘lganligi, 2- nazorat guruhidagi FUMAGILIN- B preparati yo‘riqnomaga bo‘yicha berilgan asalarilarda nozematozning klinik belgilari, ya’ni ich o‘tishi, qorinchalarning shishganligi, uya tubida g‘ujlanish holatlari kuzatildi. Yo‘riqnomada preparat 21 kun davomida asalarilar oziqasiga qo‘shib berish tavsiya etilgan. Tajriba va nazorat guruhidagi olingan natijalar asosida 0,25 ml Толкокс 2,5%, preparatining asalarilar nozematozini davolashda samaradorligi yuqoriligi aniqlandi. 1-tajriba guruhidagi asalarilarda ich o‘tishining to‘xtagani, uya devorida o‘rmlab harakatlanish yo‘qligi, uyaga kirib-chiqish joyidagi teshikcha atrofida o‘lgan ishchi asalarilar sonining kamligi va guruhdagi asalarilarda mehnat faoliyatining tiklanganligi kuzatildi. Kuzatishlar davomida 1 tajriba guruhidagi asalarilarning 92 tasi nobud bo‘lganligi, 2- nazorat guruhidagi asalarilarga Fumagilin- B preparati yo‘riqnomaga asosida oziqlantirildi. Guruhdagi asalarilarda nozematozning klinik belgilari, ya’ni ich o‘tishi, qorinchalarning shishganligi, uya tubida g‘ujlanish holatlari kuzatildi. Yo‘riqnomada preparat 21 kun davomida asalarilar oziqasiga qo‘shib berish tavsiya etilgan. Tajriba va nazorat guruhidagi olingan natijalarni solishtirganda 0,25 ml Толкокс 2,5%, preparatining nozematsit ta’siri yuqori ekanligi tajribada aniqlandi. Tajriba va nazorat guruhidagi asalari oilalaridan tajriba tugagandan so‘ng 3 - kunda alohida – alohida olingan tirik va o‘lik ishchi asalari namunalari laboratoriyada yuqorida aytilgan usullar orqali tekshirildi (3-jadval)

Laborator tahlil natijasiga ko‘ra olingan namunalarda asosida tayyorlangan surtmalar MIC D30 trinokular mikroskopining 10 x 100/1,25 ko‘rish burchagida 1-tajriba guruhidagi namunalarda *nosema* sporasi aniqlanmadi. 4 ballik tizimda baholansa, asalarilardan olingan namunalarda sporalar bilan zararlanganlik holati

yoʻqligi aniqlandi. 2- nazorat guruhidagi asalarilardan olingan namunalarda mikroskopning koʻrish burchagida 10 tagacha spora mavjudligi aniqlanildi.

**3-jadval.**

**Tajriba va nazorat guruhlaridan olingan namunalarni laborator tekshirish natijasi**

Guruhlar nomi berilgan preparatlar	Asalari soni M	Uyalardan olingan namunalarning soni	Tekshirish natijasi 4 ballik tizim asosida
Tajriba Толқокс 2,5%,	4854	30	-
Nazorat FUMAGILIN-B	4736	30	+
Nazorat Shakarli sirop	4715	30	+++
<b>Jami</b>	<b>14305</b>	<b>90</b>	

4 ballik tizimda baholansa kuchsiz darajada (+) zararlanganlik holati mavjudligi aniqlandi. 3- nazorat guruhidagi asalari oilalaridan olingan namunalarda zararlanish darajasi oʻrtacha kuchli - 1000 (+++) darajada ekanligi aniqlandi. Ikkala nazorat guruhidagi asalarilarda nozematozning klinik belgilari, yaʼni ich oʻtishi, qorinchalarning shishganligi, uya tubida gʻujlanish holatlari kuzatildi. Nazorat guruhlaridagi asalarilarda kunlik nobut boʻlish holatlari aniqlandi. 1 tajriba guruhidagi asalari uyasi atrofida oʻlim soni koʻp sonli emasligi, uyaga krib chiqish tuynukchasining oldi tozaligi, guruhdagi asalarilarda mehnat faoliyatining tiklanganligi kuzatildi. Asalarilarning nozematoz kasalligini davolashda 0,25ml Толқокс 2,5%, preparati 1 litr shakarli siropga aralashtirib 250 g miqdorida, asalari oilasini 24 soat davomida bir marotaba oziqlantirish 87,5 % da nozematsid taʼsir samaradorligi yuqori ekanligi va shu bilan birga asalarilar hamda ularning nasli uchun umuman zararsiz ekanligi tajribada aniqlandi. FUMAGILIN-B preparatining asalarilarda nozematozni davolash samaradorligi 85,3 foizni tashkil etishi aniqlandi.

Dissertasiyaning toʻrtinchi bobidagi **“Nozematozning profilaktikasida mahalliy INNOPROVET probiotigining samaradorligi”** deb nomlangan qismida nozematozning profilaktikasida mahalliy INNOPROVET probiotigining samaradorligini oʻrganish borasidagi tajribalar Samarqand viloyati Toyloq tumani Baxshitepa MFYda joylashgan “Baxshitepa baliqlari” xoʻjaligi negizida tashkil etilgan asalari oilalarida olib borilganligi bayon etilgan.

